

DOSTON IJROCHILIGIDA OVOZNI YO'LGA QO'YISH MASALALARI**Sevinchoy ISMOILOVA***O'zMMSI, Xalq ijodiyoti: (baxshichilik va dostonchilik)
ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi***Asatilla SUNNATILLAYEV***O'zMMSI, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik
kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, katta o'qituvchi, Ilmiy rahbar*

Annotatsiya. Ushbu maqolada baxshichilik san'ati, so'z va sozning baxshi hayotida tutgan o'rni, baxshichilik san'ati ijrochiligida ovozni yo'lga qo'yish metodikasi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Baxshi, baxshichilik san'ati, ovoz, intonatsiya, vokal, do'mbira, an'ana, badihago'ylik, diapazon.

Аннотация. В данной статье рассматривается искусство бакши, роль слова и музыки в жизни бакши, способ создания голоса при исполнении бакши.

Ключевые слова: бакши, искусство бакши, голос, интонация, вокал, домбира, традиция, искусство, диапазон.

Annotation. This article discusses the art of bakshi, the role of words and music in the life of bakshi, the way to create a voice when performing bakshi.

Key words: bakhshi, art of bakhshi, voice, intonation, vocal, dombira, tradition, art, range.

Baxshichilik san'ati bugungi kunda yangi qiyofada o'z qiralarini kashf etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan baxshichilik san'atiga berilayotgan e'tibor hammamizga ma'lum. Buning natijasida ushbu noyob san'atga qiziqib, uning tarixi, ijrochilik uslublarini shiddat bilan o'rganib kelayotgan yoshlar safi kundun-kunga ortmoqda.

Baxshi o'z xalqining biyron tilidir. Baxshining ikkita mulki bor. Biri soz bo'lsa ikkinchisi so'z. Baxshi doston, terma epos kuylar ekan u doston termalarni o'z sozi va so'zi yani do'mbirasiz tasavvur eta olmaydi. Soz va so'z baxshining hamrohi. Shu sababli ham so'z va soz baxshining mulkidir. Baxshining sozi bu - do'mbira cholg'usi. Ushbu soz Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida keng tarqalgan. Baxshi shoirlarning asosiy jo'rnavoz cholg'usidir. Uning yaratilishi haqida ham juda ko'p afsona va rivoyatlar mavjudligi ilmiy manbalarda keltiriladi.

Do'mbira cholg'usi tut, yang'oq, archa, daraxti yog'ochidan yasaladi. Qopqog'i kosasiga yelimlanmasdan ichakdan eshilgan chilvir ip bilan tarang tortib bog'lanadi. Uning torlari echking ichagidan eshib tayyorlanadi. Dastasiga parda bog'lamlari bog'lanmagan. Tovush ko'lami 1,5 oktavani tashkil qiladi

O'tmishga nazar soladigan bo'lsak, ustoz baxshilarimiz Fozil shoir, Po'lkan shoir, Umar baxshi Safar o'g'li, Ergash shoir, Po'lkan shoir, Abdulla shoir, Xidir shoir, Qodir baxshi Rahimov singari ustoz baxshilar baxshichilik san'atiga so'z uyg'unliklarini, yashab turgan mintaqasining qadimgi shevalarini bugungacha

asrab avaylab, an'anaviy repertuarlarining xalqchiligini "ustoz-shogird" an'anasi asosida davom ettirib, kelajak avlodga dostonchilik maktablarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatib kelishgan.

Hozirgi kunda baxshichilik san'atiga berilayotgan e'tibor natijasida bu san'at turi yanada rivojlanmoqda. Baxshichilik san'ati ijro yo'nalishini yanada mustahkamlash, ijrochilik mahoratini mukammal darajaga ko'tarish, ovoz ohanglarini yanada sayqallash borasida soha mutaxassisleri tomonidan bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil, 2-sentabrdagi 536-son qarori asosida Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti faoliyati tashkil etildi va institutda Xalq ijodiyoti: (baxshichilik va dostonchilik) ta'lim yo'nalishi ochilib talabalarga baxshichilik san'atining sir-asrorlari ustoz baxshilar tomonidan o'rgatib kelinmoqda.

Ijrochilikda ovoz muhim ahamiyatga ega. Ustoz baxshilar ijodiga nazar tashlar ekanmiz, ular ovozini yo'lga qo'yishda hech qanday texnik vositalardan foydalanmaganliklarini ko'ramiz. Ular asosan, ovozini ichkariga tashlab, (ichki ovozda) do'mbira jo'rligida epik doston, termalar kuylab kelishgan. Ko'pincha qiru-adirlarda, tabiat qo'ynida, chorvachilik bilan shug'ullanib qolmasdan do'mbira chertib dostonlar kuylar, nag'malar ijro etganlar. Yillar mobaynida bo'g'iq ovozda dostonlar, termalar kuylab o'z mehnati orqasidan baxshi bo'lib yetishganlar.

An'anaviy xonandalikda ma'lumki, ovoz talqini musiqada eng mukammal ijro turi hisoblanadi. Chunki bu jarayonda ashulachining ovozi, ovoz sadolantirish uslubi kuy ongangi va so'z talaffuzlari kabi jihatlari bir me'yorda amalga oshirilishi lozimdir. Ijroda esa uning saviyasi muhim hisoblanadi. Xonandaning saviyasi anglatadigan jihatlari: Xonandaning ovoz imkoniyatlari (ya'ni ovozning diapozoni, tembri va hakoza). Demak xonandaning eng muhim birlamchi jarayoni ovozdir. [1, 6 b]

Ovoz mashqlari, tallafuz, ovozni rivojlantirish, ovozning ravonligi va harakatchanligini ta'minlash, ovoz diapazoni kengaytirishga muhim rol o'ynaydi. Doston ijrochiligi ovozni yo'lga qo'yish dars mashg'ulotlarida ustozlar tomonidan asarni sof intonatsiya, so'zlarni tushunarli va aniq chiqishi, ravon kuylash, tovushning yangroq yoqimli bo'lishida ovoz sozlash mashqlariga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Akademik vokal xonandaligi yo'nalishi ijro talablariga e'tibor bersak, ushbu yo'nalish unli harflarni yuqori qattiq tanglayga yig'ib aytish, usulini uziga mujassam qiladi. Nafasni to'g'ri olish va tejab ishlatish texnikasini ijrochiga o'rgatadi. [1, 6 b] Shundan kelib chiqqan holda ushbu ijro yo'nalishidan doston ijrochiligiga tadbiiq etib ijro etish mumkunligini alohida ta'kidlash mumkin.

Ovozni yo'lga qo'yish mashg'ulotlarida asarni sof intonatsiya, so'zlarni tushunarli va aniq chiqishida tovushning yangroq yoqimli bo'lishida ovoz sozlash mashqlarining o'rni beqiyos hisoblanadi. Ovoz mashqlari, talaffuz, ovozni

rivojlantirish, ovozning ravonligi va harakatchanligini ta'minlash, ovoz diapazoni kengaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Talabaning ovoz bilan ishlash jarayonida uning ovozigacha mos mashqlarni tanlay bilish dars samaradorligini oshiradi. Mashqlar xalq og'zaki ijodining kuychan namunalari asosida amalga oshirilsa talaba zerikmaydi. Unda o'tilayotgan darsga nisbatan qiziqish uyg'onadi. Mashqlar dastlab ovozni to'g'ri yo'naltirish, nafasni tejab ishlatishga qaratiladi. Shubhasiz, birinchi o'rinda bu jarayonda nafas olishga alohida e'tibor berish kerak. Asta-sekin doston ijrochiligida talab etadigan ifodaviy vositalar, musiqiy jilolar, mashq yordamida mukamallashtirilib boriladi.

“Hamma ham do'mbira chertib baxshi bo'lib qolmaydi. Shu nuqtayi nazardan Alloh tomonidan yuqtirilgan iqtidor hamdir. Haqiqiy baxshi bo'laman desang, yillar mobaynida o'z ustingda ishlasang, ustozlaringni izidan yursang, bergan o'gitlariga amal qilsang shundagina baxshi bo'lib yetishasan” - deb takidlaydi, ustozim O'zbekiston xalq baxshisi Maxmatmurod Rajabov.

Xulosa qilib aytganda, doston ijrochiligida ovozni yo'lga qo'yish mashqlari oddiydan boshlanib, keyin asta-sekinlik bilan murakkablasha borgani to'g'ri bo'ladi. Mashqlar albatta ijrochilik ta'limoti talablariga to'liq javob berishi va maqsad sari bir-birini to'ldirib borishi lozim. Xuddi shunga o'xshash doston ijrochiligi ham osondan boshlanib, asta-sekinlik bilan murakkablashib borishi doston ijrochilik malakalarini puxta egallab borishiga xizmat qilishi muqarrar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ermatov M. An'anaviy xonandalik. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, -T., 2003 y.
2. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi: O'quv qo'llanma / Mas'ul muh.: fil.f.d., prof. H.Boltaboev. Toshkent:, 2010.
3. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari / Mas'ul muharrir: O'zR FA akademigi Shoabdurahmonov Sh. – Toshkent: Fan, 1979.
4. Begmatov S., Matyoqubov M. O'zbek an'anaviy cholg'ulari. – T.: “Yangi nashr” 2008.
5. Matyoqubov B. Doston navolari / Mas'ul muharrir: san.f.n., prof. Yunusov R. – Toshkent, 2009.